



**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA
XALQARO BAHOLASH TAJRIBASI:
MUAMMO, YECHIMLAR VA
ISTIQBOLLAR**

XALQARO ILMYIY-AMALIY ANJUMAN

MATERIALLARI

Buxoro, 2022-yil, 29-mart

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ
БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ

БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ХАЛҚАРО
БАҲОЛАШ ТАЖРИБАСИ: МУАММО, ЕЧИМЛАР
ВА ИСТИҚБОЛЛАР

ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН

МАТЕРИАЛЛАРИ

2022 йил, 29 март

Илмий анжуманнинг дастурий қўмитаси

- | | | |
|---------------|---|--|
| О. Х.Хамидов | – | Бухоро давлат университети ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор, раис. |
| О.С.Қаҳҳоров | – | илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини. |
| Ў.У. Рашидов | – | молия ва иқтисод ишлари бўйича проректор, аъзо. |
| Қ.Р.Тўхсонов | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, аъзо. |
| Ю.Ю.Азимов | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| Н.О. Сафарова | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| А.Р.Ҳамроев | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо. |
| Ю.А. Пўлотова | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, котиб. |

Илмий анжуманнинг ташкилий қўмитаси

- | | | |
|----------------|---|--|
| О.С.Қаҳҳоров | – | Бухоро давлат университети илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини. |
| Қ.Р.Тўхсонов | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, раис муовини. |
| Г.Т. Зарипов | – | ИТ, И ва ИПКТБ бўлими бошлиғи, аъзо. |
| Ю.Ю.Азимов | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| Н.О. Сафарова | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| А.Р.Ҳамроев | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо. |
| Ф.М.Қосимов | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо. |
| Ғ.М.Сайфуллаев | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо. |
| Н.Б.Адизова | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси катта ўқитувчиси, аъзо. |
| Р.А.Қўлдошев | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо. |
| Р.Х.Жумаев | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо. |

Тўшлам Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 мартдаги 101-ф-сонли фармойиши билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасида 2022 йилда ҳалқаро ва республика миқёсида ўтказиладиган илмий ва илмий-техник тадбирлар режасида белгиланган тадбирларнинг бажарилиши мақсадида 2022 йил 29 март куни Бухоро давлат университети Бошланғич таълим методикаси кафедрасида “Бошланғич таълимда ҳалқаро баҳолаш тажрибаси: муаммо, ечимлар ва истиқболлар” мавзусидаги ҳалқаро илмий-амалий анжуман материаллари асосида тузилди.

Масъул муҳаррир:

А.Р.Ҳамроев, педагогика фанлари доктори, доцент

Тақризчилар:

Б.Р.Адизов, педагогика фанлари доктори, профессор

Ю.Ю.Азимов, филология фанлари номзоди, доцент

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi.T.,O'qituvchi, 2005-174b
- 3.Sayfullayev G'.M. Tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish Globe Edit 2020
- 3.Baxromov A. Atrofimizdagi olam (1-2-sinf uchun darslik) T. «Cho'lpon» Nashriyoti 2018y

**SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TA'LIM
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

**G. M. Sayfullayev, BuxDu dotsenti
S. Namozova, 2-kurs magistr**

Ushbu maqolada sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish haqida materiallar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Aqliy hujum, metod, uslub, tushuncha, motiv, g'oya, gerbariy*

В данной статье представлены материалы по использованию современных методов обучения в обучении внеклассной работе.

Ключевые слова: *метод, приём, кластер, гигиена, приём, понятия, гербарий, мотив.*

This article presents materials on the use of interactive teaching methods in teaching natural sciences in grade 3.

Key words: *trainer, hygiene, reception, sanitation, concepts, aesthetics, gerbariy.*

Boshlang'ich sinfdan ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, o'quvchilarning darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interaktiv metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Metodning maqsadi- guruhdan qisqa vaqt ichida ko'p miqdorda variantlarni olish, o'quvchilar nimalarni bilishini aniqlash. Mashg'ulot davomida muammoni hal eta oladigan g'oyalarni taklif etilishi, umumiy tajriba yuzasidan fikr almashish uchun zamin yaratilishi va o'quvchilar istagini bildirishi mumkin.

- "Fikriy hujum" odatda og'zaki shaklda bo'lib o'tadi o'qituvchi savol beradi, o'quvchilar esa munozaraga tushmasdan o'z fikrini galma-gal bayon qilishadi, bunda hamma o'z fikrini aytib bo'lishi kerak;

- g'oyalarning hammasini barchaga namoyish qilib ko'rsatib qo'yilmaguncha ularni muhokama qilmaslik nihoyatda muhim;

- jarayonning tartibi va maqsadini o'quvchiga tushuntirib qo'yish lozim;

- g'oyalarni ro'yxati kimdagi uzunroq bo'lsa o'sha yaxshi hisoblanadi.

O'rta umumta'lim maktab o'quvchilari ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash uchun o'qituvchi va tarbiyachilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlar imkoniyatidan keng ravishda foydalanadi.

Sinfdan tashqari ishlarga turli anjumanlar, kechalar, o'tkir zehnlilar musabaqasi, ekskursiyalar o'tkazish, kinoteatrlarga borish, zavod va fabrikalarga ekskursiya tashkil etish, devoriy gazetalar chiqarish va boshqalar kiradi.

Sinfdan tashqari ishlar ikki turga bo'linadi: ta'limiy va tarbiyaviy. Sinfdan tashqari ta'lim ishlariga maktabda ma'lum fan yuzasidan tashkil etiladigan ishlar: to'garaklar, olimpiyadalar va kechalar kiradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning asosiy maqsadi va vazifasi o'quvchilarning axloqiy, mehnat, estetik tarbiyasini yaxshilashdir. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchi qobiliyatini rivojlantiradi, o'qishga bo'lgan havasini oshiradi va ular shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun imkoniyat tug'diradi.

Sinfdan tashqari ishlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ular maktab bilan hayot aloqasini mustahkamlaydi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish san'atkorlar, ishchilar, olimlar, dehqonlar hayoti bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. O'quvchilar turli sohada ishlayotgan kishilar bilan tanishib, ular kabi vatanga, xalqqa xizmat qilish istagi paydo bo'ladi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar ixtiyoriy xarakterga ega. Bolalar bunday ishlarga o'z xohishlari bilan ishtirok etadilar. Bir kishi bir necha tadbirlarda ham qatnashishi mumkin. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish tog'ri emas. Ular o'z xohishlari va qobiliyatlari asosida chora tadbirda ishtirok etishlari mumkin. Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati va uning ijtimoiy foydali yo'nalishi. Darslardan tashqari maktabda bolalar bilan darsdan tashqari vaqtlarda har xil mashg'ulotlar: ekskursiyalar to'garak ishlari, ertaliklar, sinfdan tashqari o'qishlar, qiziqishlar bo'yicha klublar va boshqa ishlar o'tkaziladi. Bu

ishlar o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida ularning bilishga qiziqishlarini uyg'otish va shuningdek, maktab dasturini kengaytirish hamda to'ldirish maqsadida amalga oshiriladigan chetdagi ko'pchilik faoliyat shakli bo'lgan sinfdan tashqari ishlar nomini oladi. Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlar darslarda olingan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va aniqlashtirish, tabiatni o'rganishga qiziqish uyg'otish, o'quvchilar faolligi va mustaqilligini rivojlantirish, bu vaqtni tashkillashtirish imkoniyatini beradi. Sinfdan tashqari tabiatshunoslik ishlari tarbiyaviy ahamiyatga ham ega, chunki o'quvchilarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Ular moddiy dunyoga qarashni va mehnat madaniyatini shakllantiradi, bilishga qiziqishni va mustaqil kuzatish ko'nikmalarini rivojlantiradi, jamoatchilik hissini va tabiatga muhabbatni tarbiyalaydi. Tabiatshunoslik bo'yicha yo'lga qo'yilgan sinfdan tashqari ishlar o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositalaridan biridir.

Uzoq muddatli tajribalar qo'yish, gerbariy va kolleksiya uchun material yig'ish, model, maket va boshqa ko'rgazmali qurollar tayyorlash, jonli tabiat burchagi va o'quv-tajriba maydonchasidagi ishlar kabi sinfdan tashqari, ishlarning shakllari tabiatni o'rganishni hayot bilan bog'lash va o'quvchilarni mehnatga tayyorgarlik uchun ahamiyatli bo'lgan amaliy uquv va ko'nikmalar bilan qurollantirish imkoniyatini beradi. Bolalarning kuzatishlari va o'qituvchining tushuntirishlari bilan olib boriladigan qishloq xo'jaligi bo'yicha amaliy ishlari tabiatni boshqarish, uni inson manfaati uchun o'zgartirish to'g'risidagi ta'limot asoslarini tushunib olishlariga yordam beradi. Bolalarning ijtimoiy-foydali faoliyatlari ularni mehnatga o'rgatadi va vatanparvarlik tarbiyasiga ko'maklashadi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning barcha turlari bir-biriga bog'liq bo'lishi, biri ikkinchisini to'ldirishi kerak. O'simlik va hayvonlar bilan ishlashga darslarda vujudga kelgan qiziqish sinfdan tashqari mashg'ulotlarda rivojlanishi mumkin, ayniqsa tabiatshunoslik bilan qiziqqan o'quvchilar esa yosh tabiatshunoslar to'garagiga birlashtirilishi mumkin. O'quvchilarda tabiiy ob'ektlarni kolleksiya qilishga moyillikni, hayvonlarga muhabbatni payqagan o'qituvchi ularning qiziqishlariga qarab mashg'ulotlar topishi, tabiat to'g'risidagi fanni chuqurroq o'rganish istagini rivojlantirish zarur.

Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlarga tabiatni o'rganish va muhofaza qilish, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilish bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil mashg'ulotlar kiradi. Bumashg'ulotlar darslarni takrorlamasligi va faqat darslarda olingan bilimlarga asoslanishi kerak. Bolalar e'tiborini tabiat, shuningdek maktab jonli burchagi va o'quv-tajriba maydonchasidagi kuzatishlarga qaratmoq; ko'cha va maktabni ko'kalamzorlashtirish bo'yicha, qushlarni muhofaza qilish va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash bo'yicha ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil qilmoq lozim. Tabiatdagi amaliy ishlar kuzatishlar va tegishli kitoblar o'qish bilan birga olib borilishi kerak.

Sinfdan tashqari ishning jadal borishi uchun uni tashkil etish shakllarini puxta o'ylab chiqish zarur. Sinfdan tashqari ishlarni uch guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhga ko'plab o'quvchilarni qamrab oluvchi ommaviy ishlar, tadbirlar, ikkinchi guruhga - guruh doirasida olib boriladigan to'garak ishlari va uchinchi guruhga tabiatni o'rganishga qiziqqan yakka tartibdagi o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar kiradi.

Ommaviy mashg'ulotlar kinofilmlarni namoyish qilishni, tabiatga ekskursiya va poxodlar o'tkazishni, ertaliklar, o'quvchilar ishlarining ko'rgazmasini tashkil qilishni, shuningdek kompaniyalar (hosil kuni, bog' haftaligini, daraxtlar o'tkazish haftaligi, qushlar kuni va boshqalar) o'tkazishni nazarda tutadi. Guruh mashg'ulotlarga yosh geografiyachilar, yosh tabiatshunoslar, klub ishlari kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi.T.,O'qituvchi, 2005-174b
- 2.Sayfullayev G'.M. Tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish Globe Edit 2020
- 3.Baxromov A. Atrofimizdagi olam (1-2-sinf uchun darslik) T. «Cho'lpon» Nashriyoti 2018.

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILAR IMLOVIY SAVODXONLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

M. A. Ibragimova

Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

M. S. Ernazarova

Navoiy davlat pedagogika instituti professori, f. f. d. (DSc)

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar imloviy savodxonligini takomillashtirish haqida to'xtalib o'tildi.

Kalit so'zlar: darslik, bilim, DTS, ko'rgazmali qurollar, baho, imlo, savodxonlik.

G. M. Sayfullayev, F. Yodgorov, 3 - SINFDAN TABIATSHUNOSLIKNI O`QITISHDA TA'LIMNING INTERFAOL METODLARIDAN FOYDALANISH	97
Бабаева Ш.Б., МЕТОДЫ МОДЕЛИРОВАНИЯ СИНТАКТИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА.....	99
А.И.Бахронова, М.Садирова, БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРНИ АХЛОҚИЙ ТАРБИЯЛАШГА ТАЙЁРЛАШДА ДАРСДАН ТАШҚАРИ МАШҒУЛОТЛАРНИНГ ОЛИБ БОРИЛИШИ	101
Д. Р.Носирова, ИНТЕГРИРОВАННОЕ ОБУЧЕНИЕ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ С УЧЕТОМ РЕГИОНАЛЬНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ	103
Узакова А.Б., Рохатова З.И. РАБОТА С ТЕКСТОМ ПРИ РАЗВИТИИ РЕЧИ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРНОГО ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ	105
G. M. Sayfullayev, D. Sattorova. ATROF TABIAT BILAN TANISHTIRISH JARAYONIDA BOLALARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	107
G'. M. Sayfullayev, I. Temirova, BOSHLANG'ICH SINF O`QUVCHILARINI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING TARIXIYLIGI	108
G. M. Sayfullayev, S. Namozova, SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	110
M. A. Ibragimova, M. S. Ernazarova. BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI VA O`QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O`QUVCHILAR IMLOVIY SAVODXONLIGINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Салаева Муборак Сабуровна, Павлова Мария Владимировна. АРТ-ТЕРАПИЯ КАК СРЕДСТВО ГАРМОНИЗАЦИИ И РАЗВИТИЯ ПСИХИКИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ.....	113
G. E. Saidova, BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O`QITISHDA ZAMONAVIY DARS SHAKLLARI	116
F. Boboxonova, NUTQIY ODOB, NUTQ JARAYONIDA TO`G`RI VA MANFAATLI SO`Z QO`LLASH SAN`ATI	117
F.M. Qosimov, M.M. Qosimov. MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O`YINLARDAN FOYDALANISH – TA'LIM SAMARADORLINI OSHIRISH OMILI	119
Sidiqova, MASOFAVIY TA'LIM SHAROITIDA TALABALARNING BILIM OLISHDAGI IMKONIYATLAR.....	121
D.A. Ubaydullayeva, OILADA YOSHLARNING KASBIY IJTIMOYLAHVINI TA'MINLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	122
N.B.Adizova, D. Husenova. BOSHLANG'ICH SINF O`QITUVCHILARI FAOLIYATIDA TEXNOLOGIK YONDOSHUVNING O`ZIGA XOSLIGI	125
M. F. Ibrohimova. BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA MANTIQUIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	127
N. B. Adizova, M. M. Fattullayeva. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ERTAK O`QITISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI	128
Ю.К.Кушназарова. КУЛЬТУРА МЫШЛЕНИЯ СПЕЦИАЛИСТА КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА: СРЕДСТВА И УСЛОВИЯ ЕЕ РАЗВИТИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	129
G.Вомуродова. MILLIY QADRIYATLAR NEGIZIDA BOSHLANG'ICH SINF O`QUVCHILARI MA`NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI PEDAGOGIK QARASHLAR	134
М. Дж. Хайдарова. БОШЛАНГИЧ СИНФ УҚУВЧИЛАРИНИ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ИНДИВИДУАЛ ЁНДАШУВНИ ТАТБИҚ ЭТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	135
Dzhamashova Gulnur Ablakhatovna, Dzhumaev Mamanazar Irgashevich. TECHNOLOGY OF EDUCATION SYSTEM AESTHETIC REQUIREMENTS OF STUDENTS	138
G. Eshqulova, D.B. Axmedova. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SINFDAN TASHQARI O`QISH DARSLARIDA LATIFALARNI O`RGANISHNING AHAMIYATI	139
Sh. Baxriddinova, M.Y. Ro'ziyeva. O`QUVCHILAR BILIM SIFATINI OSHIRISHDA GURUH INTIZOMINING O`RNI.....	141
Sh. M. Salixov, SPORT MURABBIYLARINI TAYYORLASHDA ETIKA MASALALARI.....	143
Sh. M. Salixov, T. M. Salixov, BO`LAJAK CHEMPION SPORTCHILARNI TAYYORLASHDA ULARNING TEMPERAMENTAL SIFATLARINI O`RGANISH.....	144
A. F. Qosimova, BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O`QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	146